




INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



Google Scholar doi

zenodo

OpenAIRE



+998335668868



<https://innoworld.net>

2025



**«INNOVATIVE WORLD» ILMIY TADQIQOTLARNI QO'LLAB-
QUVVATLASH MARKAZI**

**«ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOTLAR: MUAMMO VA
YECHIMLAR» NOMLI 2025-YIL № 5-SONLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI**

**ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION**

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2025

Lisoniy birliklar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tavsifi**Abruyeva Sarvinoz**

SamDU filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada lisoniy birliklar o'rtasidagi turli xil munosabatlar, ularning xususiyatlari va tavsifi haqida mulohazalar yoritilgan.

Kalit so'z: til, lison, UMIS, AHVO, lisoniy paradigma, lisoniy ziddiyat, tasnif, po'g'onali munosabat, sintagmatik munosabat.

XX asrning oxirgi choragida davr, maqsad va vazifalar tubdan o'zgardi. O'zbek tilshunosligida lison va nutqni izchil farqlash asosida tilimizning lisoniy sestimasi lisoniy birliklar va ularning munosabatlarini tadqiq qilish, imkoniyatlarini ochish ustuvorlashdi. Ma'limki, kishilar bir – birlari bilan til orqali munosabatda bo'ladi va fikrimiz til orqali voqelanadi. Ongda paydo bo'ladigan fikrning mohiyatini, mazmunini tashkil etadigan har qanday idrok yoki tasavvur ham so'zlar vositasida namoyon bo'ladi. Tilshunoslikda tilning tuzilishi va undagi birliklarning shakl hamda mazmun jihatidan o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish doimo dolzarb bo'lib kelgan.

Til – tafakkurni rivojlantirish va shakllantirishga, borliq haqidagi bilimlarni xotirada qat'iy sistema sifatida saqlashga axborot uzatish va qabul qilishga xizmat qiluvchi muhim (birlamchi) ijtimoiy- ruhiy kommunikatsiya vositasi bo'lib, u o'z ichiga lisoniy zot (UMIS) va tajalli (AHVO) larni ham, UMISning AHVOga o'tish qonuniyatlarini qamrab oladi [2, 22-b]. O'zbek tiliga sistema sifatida yondashishda lison o'rnida til atamasi qo'llanilib, bu so'z ko'p ma'nolilik tabiatiga ega bo'lganligi sababli ayrim chalkashliklarni keltirib chiqarar edi. Insonning nutq so'zlash qobiliyatini ham, nutqi ham til atamasi bilan yuritilar edi. Shu sababdan tilshunoslar falsafiy zotning tildagi ko'rinishiga nisbatan lison atamasini qabul qildilar [5, 32-b]. Lison – kishining miyasida, miyaning til xotirasi qismida mavjud hodisalar (til xotirasidagi boylik) va ularni ishlatish qoidalari [1, 4-b]. Lisoniy birliklar uchun umumiylik, mohiyat, imkoniyat va sabab xos hisoblanadi. Lisoniy birliklarning o'zi ko'p qirrali va murakkab hodisadir. Ularning o'rtasida turli xil munosabatlar ifodalanishi mumkin. Jumladan, lisoniy paradigma, lisoniy ziddiyat, lisoniy tasnif kabilar.

Paradigma – grekcha "paradiegmata" misol, namuna degan ma'noni bildiradi. Paradigmani tashkil etuvchi birlik paradigma a'zosi hisoblanadi. Paradigmada asosan ikkita a'zo bo'lib, ular, asosan, bir lisoniy sathga mansub bo'ladi. Bir paradigma a'zolari ortasidagi o'zaro munosabat paradigmatic munosabat deyiladi [5, 42-b]. Masalan, yuz so'zini oladigan bo'lsak, ko'z oldimizga, alabatta, insonning burun, ko'z, og'iz kabilarni o'z ichiga oluvchi qism yodimizga tushadi. Shuningdek, uning bet, chehra, jamol, oraz, kabi paradigmalari namoyon bo'ladi. Bir- birini eslatuvchi birliklar o'rtasida o'zaro o'xshashlik jihatlari bilan birgalikda farqli jihatlari ham bo'ladi. Jumladan, bet so'zi so'zlashuv uslubiga xos bo'lsa, oraz, jamol so'zlari badiiy uslubga xosligi bilan bir-biridan farqlanib turadi. Bundan tashqari, ular o'rtasida salbiylik (bet, bashara) va ijobiylik (yuz, oraz, ruxsor, chehra) jihatidan darajalanish (graduonimik) hodisasi ham kuzatiladi.



Falsafada munosabat muayyan sistemadagi elementlarning joylashish tabiati va ularning bir- biri bilan o'zaro bog'liqligi sifatida qaraladi. Jumladan, shaxs jamiyatdagi boshqa shaxslar bilan bog'liq holda yashaydi. Ushbu bog'liqlik shaxsning munosabatidir. Oila a'zolari orasidagi bo'liqlik bunga yaqqol misol bo'la oladi. Oilada ota bilan ona, ular bilan farzandlar, farzandlar orasida o'zaro o'ziga xos munosabatlar oila sistemasining xususiyatini namoyon qiladi [2, 54-b].

"Munosabatlar" deganda bir butunlikning tarkibiy qismlari – birliklari orasidagi o'zaro aloqalar, bog'lanishlar tushuniladi, bunday aloqalar turlicha bo'lishi mumkin. Shakl, ma'no yoki vazifa jihatidan o'xshashlik va farqlar til birliklari orasida o'zaro munosabatlar, aloqalarning eng asosiy ko'rinishidir [4, 13-b].

Lisoniy birliklar orasida pog'onali (iyerarxik) munosabat ham mavjud. Pog'onali munosabat deyilganda birlikning boshqasi tomondan qamrab olinishi tushuniladi [2, 61-b]. Masalan, Salima, Halima, Gulyora leksemalari ismni, qovun, non, tulki nomni tashkil qilsa, ism va nomning ot so'z turkumi tomonidan qamrab olinishi pog'onali munosabatni hosil qiladi.

Pog'onali (iyerarxik) munosabat tushunchasi til va nutq sathlari voqeligi va ularning lingvistik tabiati bilan uzviy bog'liqdir, zotan, pog'ona terminining asl mohiyati sathlar o'rtasidagi stratifikativ bog'lanishda o'z ifodasini topadi. Boshqacha aytganda, lingvistik sath qatlam ma'nosini taqazo etadi, ular o'rtasidagi bog'lanish esa pog'onali bo'ladi [6, 10-b].

Til birliklarining chiziqsimon, ketma- ketlik aloqasi sintagmatik munosabat deyiladi. Aslida sintagmatik munosabat ham lisonda imkoniyat sifatida yashaydi. Masalan, kitob leksemasining qanday so'zlarni biriktira olish va qanday so'zlarga birika olish (valentlik) imkoniyati uning lisoniy mohiyatida mavjud. Sintagmatik munosabatni sintaktik aloqadan farqlash lozim. Chunki sintagmatik munosabat lisoniy birlikning valentlik imkoniyati bo'lsa, sintaktik aloqa bu imkoniyatning nutqiy voqelanishi hisoblanadi. Sintagmatik va sintaktik aloqani butunlay boshqa- boshqa hodisalar deb ham, bir-biriga aynan tenglashtirish, bir-birini qoplovchi sifatida qarash ham mumkin emas. Sintagmatik munosabat va sintaktik aloqa butun – bo'lak munosabatidadir. Sintaktik aloqa- sintagmatik aloqaning bir ko'rinishi [2, 62-63-b]. Masalan, ularning ismlari – E'zoza va Bonu. Bunday nutqiy birliklar turlicha munosabat bilan bog'langan. Ular so'zi ism so'zi, -lar qo'shimchasi bilan ketma – ket, zanjirsimon bog'langan. Yoki ism so'zi uchta tovushning ketma-ketligidan iborat. Bunday liniyaviylik ketma -ketlik sintagmatik aloqa deyiladi.

Sintagma tushunchasi faqat so'zlarning o'zaro bog'lanishiga aloqador bo'lib qolmasdan, so'z formalar, gap bo'laklari va gaplarga (qo'shma gap tarkibidagi soda gaplarning birin – ketinligi) ham aloqadordir. Sistem – struktur tilshunoslik asoschisi F.de Sossyur nutqdagi elementlarning birin – ketinlik munosabati sintagmatik munosabat deb atagan [3, 23-b].

Ziddiyat (arabcha " qarama-qarshilik; variant: oppozitsiya) tilshunoslikda bir sistemadagi lisoniy birliklarning mazmuniy tomoni asosida o'zaro u yoki bu darajada farqlanishini ifodalaydi. Ziddiyat tafovut, farq, qarama- qarshilik, ixtilof

bir turga kiruvchi har xil tushunchalardir. Lisoniy paradigmada birliklarni bir-biriga bog'lab turuvchi, paradigmmani yashovchanligini taminlab turuvchi omil lisoniy ziddiyatdir. Ziddiyat paradigmatic va iyerarxik munosabatning xossasi sifatida sintagmatik munosabatga qarama-qarshi qo'yiladi. Sintagmatik munosabatda qarama-qarshilik emas, uyg'unlik ustuvorlik qiladi. Biroq uyg'unlik farq va tafovutlar asosida kelib chiqadi. Lisoniy birliklar orasidagi ziddiyat ma'lum bir belgi asosida mavjud bo'ladi. Ziddiyatga kiruvchi lisoniy birliklar ziddiyat a'zosi, ziddiyatga asos bo'luvchi belgi ziddiyat belgisi deyiladi [2, 66-b]. Masalan, leksemalar o'rtasidagi ziddiyatga misol keltiradigan bo'lsak, opa va singil leksemasida opa singilga nisbatan katta, singil esa opaga qaraganda kichikligi bilan ziddiyat yuzaga chiqyapti. Ziddiyat a'zosi opa-singil hisoblansa, katta va kichiklik ziddiyat belgisidir.

Tasnif (arabcha "saralash", "tartibga solish") narsa va predmetni aniq va doimiy o'ringa ega bo'lgan guruhga bo'lish. Tasniflash bo'lishdan barqaror tabiatliligi bilan ajralib turadi. To'g'ri, tasniflashda ham oddiy bo'lishda amal qiladigan barcha tamoyillar asos bo'lib xizmat qiladi. Ya'ni tasnifda ham bo'lishdagi kabi:

1) tasniflangan bo'laklar hajmi tasniflanayotgan butunlik hajmiga teng bo'lishi;

2) tasnif bir asosda amalga oshirilishi;

3) tasnif guruhlari bir-birini inkor qilishi;

4) tasnif uzluksiz bo'lishi, ya'ni unda "sakrash" bo'lmasligi lozim; [5,50-b]. Jumladan, lablangan unli, lablanmagan unli deb turib old qator unli kabi guruhga ajratish tasnifda "sakrash" ni keltirib chiqaradi. Ushbu xatoga yo'l qo'ymaslik uchun har birini alohida ma'lum bir jihatiga ko'ra tasniflash lozim. Lablarning ishtirokiga ko'ra lablangan va lablanmagan unlilar, tilning harakatiga ko'ra esa old qator unli, orqa qator unli kabi tasniflash to'g'ridir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, lisoniy birliklar o'rtasidagi munosabat murakkab va keng qamrovlidir. Fonemadan boshlab matngacha bo'lgan birliklar iyerarxik munosabatda bo'ladi va bir-birini to'ldirib, yaxlit ma'no hosil qiladi. Paradigmatik va sintagmatik munosabatlar lisoniy birliklarning nutqda qo'llanish jarayonini bildiradi. Lisoniy birliklar orasidagi ziddiyatlarni to'g'ri anglash va idrok etish ularning mohiyatini aniq tushunish va talqin qilishning bo'g'inidir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Хожиев А. Узбек тилшунослигининг долзарб муаммолари. "Узбек тили ва адабиёти", 2007, №4, 1-сон. 4-б.
2. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili. -Toshkent: EXCELLENT POLYGRAPHY, 2020. 22,54,61,63-b.
3. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. -Toshkent: O'qituvchi, 1993. 23-b.
4. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 1995. 13-b.
5. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent: 2009. 32,42,50-b.
6. Xayrullayev X. Til va nutq birliklarining pog'onali munosabati.
7. -Toshkent: 2010. 10-b.

